“T A S D I Q L A Y M A N”
O‘zbekiston Respublikasi
Korrupsiyaga qarshi kurashish
agentligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi raisi

_____ **F.Otaxonov**
2026-yil “28”-iyul

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi majlisining
2 -son

BAYONNOMASI

2026 yil 28-iyul **Toshkent shahri**

Jamoatchilik kengashi a’zolari: *F.Otaxonov, U.Muhammadiyev, F.Maxmudov, N.Norto‘rayev, A.Tashanov, L.Atayeva, G.Babajanova, T.Tursunov, Y.Olimova, K.Ishanxodjayev.*

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi: A.Burxanov, U.Tuxtasheva, K.Niyazxodjayev, U.Abruyev, A.Ergashev, A.Kamilov, A.Abduraimov, B.Burxanitdinov, J.Beshimov va boshqa agentlik xodimlari.

Nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari: 20 dan ortiq bevosita hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan jami 141 nafar.

Ommaviy axborot vositalari vakillari: 10 dan ortiq.

KUN TARTIBI :

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2026-yil 1-yarim yillikdagi faoliyat sarhisobi va 2026-yil 2-yarim yiliga mo‘ljallangan ish rejasi to‘g‘risida.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2026-yil 2-yarim yilligidagi faoliyat rejalarini amalga oshirishda Jamoatchilik kengashi ishtiroki;

(F.Otaxonov, A.Burxanov, K.Ishanxodjayev, J.Beshimov)

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi majlisini Jamoatchilik kengashi raisi **F.Otaxonov** kirish so‘zi bilan ochib berdi.

Shundan so‘ng, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori **A. Burxanov** yig‘ilishda so‘zga chiqib, 2025-yil davomida O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan islohotlar, xususan, raqamlashtirish, ochiqlikni

ta'minlash va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini kengaytirish borasida tashkiliy chora-tadbirlar va erishilgan natijalar haqida ma'lumot berdi.

Shuningdek, **Korrupsiyaning oldini olish klasteri** faoliyati doirasida klaster ishtirokchilari hamda 2025-yil davomida korrupsiyaviy jinoyatlar eng ko'p qayd etilgan vazirlik va idoralar tomonidan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan ilk bor keng jamoatchilik, jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari ishtirokida ochiq jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish amaliyoti yo'lga qo'yilganini ta'kidladi.

Agentlik ushbu amaliyotni birinchilardan bo'lib boshlab bergani, mazkur ochiq eshituvlar yil yakuniga qadar izchil davom ettirilishi hamda ularda keng jamoatchilikning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etishi qayd etildi.

Shundan so'ng, O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi raisi **K. Ishanxodjayev** yig'ilishda so'zga chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashishda nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki tobora faollashib borayotganini ta'kidladi.

Shuningdek, Agentlik tomonidan ushbu yo'nalishda Assotsiatsiya hamda hududlardagi NNTlar bilan yaqindan hamkorlik qilib kelinayotgani qayd etilib, NNTlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ishtirokini yanada kengaytirish va faolligini oshirish maqsadida davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ushbu yo'nalishdagi grantlar ajratish jarayonlarini yanada faollashtirish zarurligi ta'kidlandi.

K. Ishanxodjayev mazkur yo'nalishlarda Assotsiatsiya Agentlik va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan doimiy hamkorlik qilishga tayyor ekanini bildirdi.

1. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2026-yil 1-yarim yillikdagi faoliyat sarhisobi va 2026-yil 2-yarim yiliga mo'ljallangan ish rejasi to'g'risida

Ma'ruzachi: *Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mas'ul xodimi -* ***J.Beshimov***

Taqdimotda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik bazasini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, Agentlik tomonidan o'tkazilgan o'rganish va tahlillar, qo'llanilgan ta'sir choralari hamda hududlarni korrupsiyadan holi hududga aylantirish bo'yicha ishlab chiqilgan yo'l xaritalari to'g'risida ma'lumot berildi.

Ta'kidlanganidek, joriy yilda **7 ta muhim normativ-huquqiy hujjat** qabul qilingan.

"Raqamli komplayens" axborot-dasturiy kompleksi ishga tushirildi hamda **Korrupsiyaning oldini olish klasteri** faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari tomonidan o'tkazilgan **19 709 ta** o'rganish, monitoring va nazorat tadbirlari natijasida **1 886,0 mlrd so'mlik moliyaviy xato va kamchilik**lar aniqlangan. Shundan **264,7 mlrd**

so‘mlik qonunbuzilishlar bartaraf etildi hamda **587,8 mlrd so‘m** mablag‘ning maqsadsiz sarflanishining oldi olingan.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” platformasida **28 ming 318 nafar** davlat xizmatchisi o‘qitilgan.

Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzgan **137 nafar** mansabdor shaxsga nisbatan ma’muriy bayonnomalar rasmiylashtirilgan.

Qiymati **350 mlrd so‘mlik 92 ta davlat xaridida** qonunbuzilishi holatlari yuzasidan vazirlik va idoralarga **46 ta taqdimnoma** *(210,1 mlrd so‘m)* kiritilib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga **43 ta** material yuborilgan.

185 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazilib, ularda **255 ta** korrupsiyaviy omil aniqlangan.

“E-qaror” tizimida “yashirilgan” maqomda qabul qilingan jami **24 241 ta** qaror va farmoyish o‘rganilib, **648 tasi asossiz** ravishda **“yashirilgan”** maqomda qabul qilingani aniqlangan hamda mazkur qarorlarni ochiqlash yuzasidan mahalliy davlat hokimiyati organlariga **42 ta taqdimnoma** kiritilgan.

Shuningdek, **BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi** 5 va 13-moddalari talablariga rioya etishi bo‘yicha mustaqil monitoring amalga oshirilgan, **Agentlik, Ijtimoiy fikr markazi va Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari** bilan hamkorlikda barcha hududlarda **“Maishiy korrupsiyaning kelib chiqish omillarini aniqlash, ularning sabablari hamda jamoatchilik munosabati”** mavzusida ijtimoiy so‘rovlar tashkil etishning metodologik asosi yaratilgan.

O‘zbekiston fuqarolik jamiyati institutlari vakillari uchun Latviyada tashkil etilgan “Yozgi maktab” va NNT uchun “Korrupsiyaga qarshi fuqarolik tashabbuslari: ishtirok, shaffoflik va yechimlar” mavzusida 50 ming AQSH dollari miqdordagi grantlar tanlovi e’lon qilingan.

Muhokamalar yakunida Agentlik va Jamoatchilik kengashining 2026-yil **ikkinchi yarim yilligi uchun ustuvor vazifalari**ga alohida to‘xtalib o‘tildi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2026-yilning 2-yarim yillikdagi faoliyat rejalarini amalga oshirishda Jamoatchilik kengashi ishtiroki

Ma’ruzachi: Jamoatchilik kengashi raisi **F.Otaxonov**

Yig‘ilishda Jamoatchilik kengashi raisi F. Otaxonovning Agentlikning 2026-yil II yarim yillikdagi faoliyat rejalarini amalga oshirishda Jamoatchilik kengashi ishtiroki to‘g‘risidagi axboroti eshitildi.

Ma’ruzachi hisobot davrida Jamoatchilik kengashi a’zolarining **1 ta guruh yig‘ilishi** o‘tkazilgani, **5 ta loyiha doirasida ilmiy asoslangan xulosalar** taqdim

etilgani hamda **10 dan ortiq targ‘ibot-tashviqot tadbirlarida** ishtirok etilganini ma’lum qildi.

Shuningdek, Jamoatchilik kengashi a’zolari N. Norto‘rayev, A. Tashanov, L. Atayeva va G. Babajanovalar tomonidan Kengashning Agentlik faoliyat rejalarini amalga oshirishdagi ishtiroki hamda dastur va tashabbuslarda korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor vazifalari aks etgani ta’kidlandi.

Muhokama yakunida Jamoatchilik kengashining Agentlik faoliyatidagi ishtirokini yanada kuchaytirish va amalga oshirilayotgan loyihalarga jamoatchilik ekspertizasini keng jalb etish zarurligi qayd etildi.

Yig‘ilish davomida ishtirok etgan nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari tomonidan Agentlikning tegishli tarmoq va mas’ullariga korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning dolzarb yo‘nalishlari yuzasidan savollar berildi.

Xususan, 1253 Call-markaz faoliyatini yanada kengroq targ‘ib qilish, hududlarda ayollarni korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonlariga keng jalb etish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, xalq deputatlari Kengashlari qarorlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy xavflarni o‘rganish, yangi grant tanlovlarini tashkil etish, shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslarning ishga joylashishi hamda imtiyoz va subsidiyalardan foydalanish jarayonlaridagi korrupsiyaviy xavflarni o‘rganish masalalari bo‘yicha savollar va takliflar bildirildi.

Mazkur savollarga Agentlikning tegishli tarmoq va mas’ullari tomonidan atroflicha javoblar berilib, bildirilgan takliflar tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha ishlarni takomillashtirishda inobatga olinishi qayd etildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib,

QAROR QILINDI:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mas’ul xodimi **J.Beshimov**ning O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2026-yil 1-yarim yillikdagi faoliyat sarhisobi va O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2026-yil 2-yarim yiliga mo‘ljallangan ish rejasi to‘g‘risida taqdimoti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jamoatchilik kengashi raisi **F.Otaxonov**ning **Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2026-yilning 2-yarim yillikdagi faoliyat rejalarini amalga oshirishda Jamoatchilik kengashi ishtiroki** to‘g‘risida ma’ruzasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tegishli tarmoq va mas’ullari tomonidan:

1.1. Agentlikning Call-markaz **1253** raqami targ'ibotini kuchaytirish, mazkur jarayonlarga vazirlik va idoralar, hududiy kengashlarni jalb qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish (7 kun ichida, keyinchalik 3 oy davomida);

1.2. Korrupsiyaga qarshi kurashish jarayoniga ayollarni keng jalb qilish maqsadida hududlarda maxsus ayollar harakatini tashkil etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish (10 kun ichida va keyinchalik bir oy davomida);

1.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmonining 14-band 4-qismi ijrosini tahlil qilish hamda ijrosi samaradorligini oshirishga qaratilgan choralar ko'rish (30 kun davomida);

(manfaatdor davlat organlari va tashkilotlar bilan birgalikda 2021 yil 1 dekabrdan boshlab quyidagi tadbirlar telekanallar, shuningdek, Internet tarmog'i orqali jonli efirga uzatilishini ta'minlasin:

taraflarning roziligi bilan fuqarolar huquq va erkinliklari hamda jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi, aholi sog'lig'ini saqlash, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi, shu jumladan davlat xizmatchilarining kasbiy faoliyati bilan bog'liq huquqbuzarliklarga oid ishlar, shuningdek, ayrim oilaviy nizolarga oid fuqarolik ishlari bo'yicha sud majlislari (yopiq sud majlislari bundan mustasno))

1.4. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi deputatlari tomonidan ma'qullangan yoki yoqlab ovoz berilgan qarorlarning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni keltirib chiqarganlik holatlarini o'rganish (ikki oy ichida);

1.5. Agentlikning Jamoatchilik nazoratini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan BMT konvensiyasi monitoringi hamda Jurnalistik surishtiruv metodikasi haqida ma'lumot berishga qaratilgan grant tanlovlari e'lon qilish (10 kun ichida);

1.6. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish, shuningdek, ular uchun nazarda tutilgan imtiyoz va subsidiyalardan foydalanish jarayonlaridagi korrupsiyaviy xavflarni o'rganish (bir oy ichida).

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi Jamoatchilik kengashi:

4.1. Korrupsiyaning oldini olish klasterining 2026-yilga mo'ljallangan ish rejasi hamda Jamoatchilik eshituvlarini o'tkazish grafigiga muvofiq, Klaster ishtirokchilari hamda manfaatdor vazirlik va idoralarda tashkil etiladigan jamoatchilik eshituvi tadbirlarida Kengash a'zolarining ishtirokini tashkil etsin.

4.2. Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida NNTlar tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy buyurtmalar natijadorligini monitoring qilishda ishtirok etsin.

Kotib **B.Burxanitdinov**